

Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlarini indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlarini indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizom sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlarining darajasi va ularning o'zgarishi bo'yicha statistik kuzatuvlarni hamda narx indekslarini hisoblashni yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, respublikada sanoat faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan “Ishlab chiqaruvchilarning narxlarini indeks bo'yicha qo'llanma: nazariya va amaliyot” (BMT YeIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Butunjahon banki) tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu uslubiy nizom sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning o'rtacha narxlarini va narxlar indekslarini bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

2. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlarining statistik kuzatuvini ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) o'rtacha narxlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni olish hamda respublikada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari narxlarini indekslarini hisoblash maqsadida tashkil etilgan bo'lib,

keyinchalik sanoat mahsulotining fizik hajmi indeksini hisoblashda, milliy hisoblar ko'rsatkichlari deflyatori sifatida, asosiy fondlarni qayta baholash bilan bog'liq koeffitsiyentlarni aniqlashda, shuningdek, sanoat faoliyatida qisqa muddatli inflyatsiya tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida foydalaniladi.

3. Kuzatuvga "O'zstandart" agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268-sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir)ga muvofiq, asosiy iqtisodiy faoliyat turlari B – "Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash", C – "Ishlab chiqaradigan sanoat", D – "Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash", E – "Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish" seksiyalariga taalluqli bo'lgan korxonalar qamrab olinadi.

4. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llanilgan:

narx – tovar bahosining tovar miqdoriy birligi uchun muayyan valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birliklaridagi ifodasi;

ishlab chiqaruvchi narxi – ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti birligining korxona "darvozalari"dan chiqqan vaqtidagi, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan xaridorga yo'naltirilishi bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, boshqa qo'shimcha soliqlar, savdo, sotish ustamasi, transport va boshqa xarajatlar hisobga olinmagan narxi;

tayanch (bazaviy) narx – o'tgan yilning dekabridagi narx;

tovar (xizmat) turi – tovarning aniq belgilar, xususiyatlar, tasniflar va atributlarga ega bo'lgan aniqlashtirilgan eng kam birligi;

vakil tovar (xizmat) – tovarlar (xizmatlar)ning sifati va asosiy iste'mol xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmaydigan darajada bir-biridan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra unchalik katta bo'lmagan holda farqlanadigan, o'zining iste'mol maqsadlari bo'yicha bir xil bo'lgan, tovarlar (xizmatlar) guruhidagi muayyan turdagi tovarlar (xizmatlar)ning to'plami;

indeksning bazaviy davri – narx indeksi qiymatlari 100 % ga teng deb qabul qilinadigan va u orqali oylik narx indeksleri bog'lanishi amalga oshiriladigan davr;

vaznlarning bazaviy davri – narx indeksini hisoblashda qiymat ko'rsatkichlari vazn sifatida foydalaniladigan davr (ushbu Uslubiy nizomda – narxlar indeksini hisoblash uchun qabul qilingan bazaviy davriga nisbatan o'tgan yil (t-2) olingan);

individual narx indeksi – o'rganilayotgan jamlanmadagi bir elementning (aniq mahsulot, xizmat) narx o'zgarishini ifodalaydi va har bir alohida hodisani tavsiflash uchun foydalaniladi;

yig‘ilgan (yig‘ma) indeks – umumiy o‘rganilayotgan ma’lum bir guruh, kichik guruh yoki butun bir jarayon bo‘yicha narxlar darajasining o‘zgarishini tavsiflovchi va individual narx indekslari asosida shakllanadigan ko‘rsatkich;

umumlashtirish (agregatlash) – past darajadagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning keyingi barcha darajalardagi kattaroq to‘plamlarga to‘plash;

tanlov (namuna tanlov) – cheklangan miqdordagi kuzatuvlar to‘plami hisoblanib, ular taqqoslanuvchi (tovar) bo‘lishi kerak, umumiy xususiyatlari va nisbatlarini to‘liq va yetarli darajada aks ettirishi kerak (barcha kuzatuvlarning umumiyliigi). Statistik ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashda foydalaniladigan tasdiqlangan tasniflagichlar, nomenklaturalar va ma’lumotnomalardan olingan alohida elementlarni ifodalaydi;

tayanch korxona – narxlarni ro‘yxatga olish uchun kuzatuvga tanlab olingan obyekt;

salmoq vazn – umumiy narx indekslari doirasidagi alohida elementlarning (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha seksiyalar, bo‘limlar, guruhlar, sinflar, kichik sinflar va tovar (xizmat)lar) nisbiy ahamiyat o‘lchovi.

Ushbu Uslubiy nizomda keltirilgan atamalar, faqat statistika organlari tomonidan statistik maqsadlarda qo‘llaniladi.

5. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini (IChNI) hisoblashning ishonchliligi va xolisiligi quyidagi shartlarga rioya etilgan holda ta’minlanadi:

- a) narxlar dinamikasini kuzatish uchun tanlab olingan tovarlarning namunaliligi;
- b) tayanch korxonalar ro‘yxatining doimiy ravishda yangilanib turilishi;
- d) narx ma’lumotlarining sifatini ta’minlanishi;
- e) o‘lchov bazasini shakllantirishda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tuzilmasidan foydalanish.

2-bob. Tadqiqot vositalari

6. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining narxlarini ro‘yxatga olish Statistika agentligi tomonidan har yili tasdiqlanadigan 12 narx “Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqaruvchilar narxlari to‘g‘risida savolnoma” statistika kuzatuv shakli asosida amalga oshiriladi.

Mazkur shakllar GSIMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

7. Zarur hollarda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. Narxlar indeksini shakllantirishning asosiy bosqichlari

8. GSBPMga muvofiq, IChNIni bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. IChNIni shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan tayanch obyektlar va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

v) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

g) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va IChNI shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

1-§. Tayanch korxonalar tanlanmasini shakllantirish

10. Sanoat mahsulotlari narxlari o'zgarishini kuzatish, aniq bir maqsad bo'yicha tanlab olish asosida shakllantiriladigan tayanch sanoat korxonalarining tanlanma tarmog'i bo'yicha amalga oshiriladi.

Tayanch korxonalar tanlanmasini shakllantirish Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3-ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

11. Tayanch korxonalarni tanlashda, ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatiga asoslangan kuzatuvning tanlanma usulidan foydalaniladi, ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining ishlab chiqarish sanoatining umumiy hajmidagi yuqori ulushi ustuvor mezonlardan biri hisoblanadi.

12. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilarni tayanch korxonalar ro'yxatiga qo'shish uchun tanlab olishda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

har bir faoliyat turi uchun aynan xos bo'lgan korxonalarni (texnologik jarayoniga, foydalaniladigan xomashyo turiga ko'ra va h.k);

tanlanmaga respublika darajasida indekslarni hisoblash uchun zarur bo'lgan guruhlar, sinflar va kichik sinflar ro'yxatiga kiritilgan mahsulotlar turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni kiritish.

13. Tanlanmaning optimal hajmiga statistika kuzatuv uchun belgilangan asosiy mahsulot guruhlarini imkon qadar to'liqroq qamrab oladigan tayanch korxonalarni tanlash orqali erishiladi.

14. Tayanch korxonalarida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish tavsiya etiladi. Har bir hisobot beruvchi korxona tomonidan hisobot yili davomida narxlar haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishining muntazamliligi, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmlari to'g'risidagi hisobotlarning tahlili asosida, tayanch korxonalar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishga yo'l qo'yiladi.

15. Tanlovga muntazam ravishda mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradigan yangi tashkil etilgan korxonalar qo'shiladi.

16. Kuzatuvga tayanch korxonadan yangi turdagi mahsulot olinganda, ushbu mahsulotning o'tgan yildagi ishlab chiqarish hajmi, shuningdek, o'tgan yilning dekabr oyidagi ishlab chiqarish narxi to'g'risidagi ma'lumotlar to'planadi.

17. Kuzatilayotgan mahsulotning ishlab chiqarilishi doimiy bo'lmagan, balki tasodifiy yoki bir martalik xarakterga ega bo'lgan hamda joriy yilda ishlab chiqarilishi to'xtatilgan va kelgusida qaytadan ishlab chiqarishi kutilmayotgan korxonalar, shuningdek, tashkilotlar kuzatuvdan chiqariladi.

2-§. Vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish

18. Vakil tovar (xizmat)lar tanlovi, tanlangan korxonalar tarmog'i tomonidan ishlab chiqariladigan tovar (xizmat) turlarining narx darajasini kuzatish va individual va yig'ilgan narx indekslarini hisoblash uchun amalga oshiriladi.

19. Narxlarni ro'yxatga olish uchun tovar (xizmat)larni tanlab olishning asosiy tamoyili tanlab olingan tovar(xizmat) turining guruhlar, sinflar, kichik sinflar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha narxlar dinamikasini tavsiflash uchun vakilliligi hisoblanadi.

20. Barcha agregatlash bosqichlarida hisoblanadigan narx indekslarining haqqoniyligi, tovarlarni kuzatuv uchun to'g'ri va reprezentativ tarzda tanlab olinishiga bog'liqdir. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslarini hisoblashda, kuzatuv uchun tanlab olingan tovar turlari va tanlovga tushmagan, lekin aynan shu tovar guruhidagi mahsulot bo'lgan tovarlardagi narx o'zgarishlari, ushbu korxonada ham va kuzatuv uchun tanlab olinmagan boshqa korxonalarida ham aynan bir xil degan taxmin ko'zda tutilgan.

21. O'zbekistonning iqtisodiy faoliyat turlarini ifodalash uchun eng muhim bo'lgan hamda ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini hisoblash uchun zarur vakil tovar (xizmat)lar ro'yxati guruhlar, sinflar va kichik sinflar bo'yicha, respublika darajasida markazlashtirilgan holda shakllantiriladi.

22. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining narxlarini kuzatuvlari uchun mahsulotlarning tanlanma to'plami bosqichma-bosqich shakllantiriladi hamda har bir bosqichda muayyan tanlov usuli qo'llaniladi.

23. Birinchi bosqichda, respublika sanoat ishlab chiqarishining makro tarkibi o'rganiladi. Ushbu bosqich iqtisodiy faoliyatning alohida bo'limidagi tovarlar (xizmatlar)ni imkon qadar ko'proq qatlamlarga (bo'limlar, guruhlar, sinflar, turlar, kichik turlar, kichik turlardagi pozitsiyalarga) ajratishni nazarda tutadi. Har bir bo'limdan asosiy massiv usulidan foydalangan holda guruhlar, sinflar, so'ngra umumiy tarkibdagi jami ishlab chiqarish hajmida yuqori salmoq vazniga ega tovarlar (xizmatlar) tanlab olinadi.

24. Ikkinchi bosqichda, kuzatuvga tanlab olingan turlar orasidan ma'lum mezonlar asosida alohida kichik turlar tanlab olinadi. To'liqlik darajasini baholash uchun mezon sifatida hududiy vakillik, mahsulotlarning turli xilligi va assortimenti qo'llaniladi. Tanlanmaga ma'lum bir belgilari, xususiyatlari, tavsiflari va bajaradigan vazifalari bo'yicha aniq belgilangan gomogen (bir xil) mahsulotlarning kichik turlari qo'shiladi.

25. Oxirgi bosqichda, tanlab olingan tovar (xizmat)larning kichik turlari tarkibidan tovar (xizmat)ning aniq pozitsiyalari tanlab olinadi. Kichik turlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlovning turli usullaridan foydalaniladi: guruhdagi o'rni, assortiment kengligi, tovar (xizmat)larning bozordagi harakatchanligi, ishlab chiqarishning mavsumiyliigi va boshqalar.

26. Reprezentativlikni ta'minlash maqsadida, tanlab olingan tovar (xizmat)lar turlarining qiymati, imkon darajasida ular ifodalaydigan tovar (xizmat)lar guruhining umumiy ishlab chiqarish hajmini 50 foizdan kam bo'lmazligi lozim.

27. Aniq bir mahsulotlarni tanlashda (navlari, sinflari, turlari va h.k) albatta quyidagilarni inobatga olish lozim:

mahsulot (navlari, sinflari, turlari va h.k) ushbu tovar guruhining umumiy ishlab chiqarish hajmida kattaroq salmoqqa ega bo'lishi, nisbatan barqaror xususiyatlar bilan ajralib turishi va o'zi ifodalayotgan tovar (xizmat)lar guruhi uchun xos bo'lgan narxlar dinamikasini aks ettirishi;

agar korxonada ushbu mahsulotning umumiy chiqarilgan mahsulotlar hajmida biror bir ustuvorlikka ega bo'lmagan bir necha turlari ishlab chiqariladigan bo'lsa, u holda mahsulotlarning yaxlitlangan tovarlar guruhiga kiruvchi bir necha turlari narxlarini qayd etish lozim.

28. Mahsulotning yangilanish darajasi yuqori, shuningdek assortiment guruhlar xilma-xil bo'lgan tarmoqlarda, vakil tovarlarning to'plamiga aniq bir mahsulotlarni (navlari, sinflari, turlari va h.k) emas, balki deyarli bir xil narxlar darajasiga ega bir guruhga xos tovarlar kichik guruhostilari kiritilishiga yo'l

qo'yiladi. Bunda, yaxlitlangan tovar guruhini (xizmatlar guruhi) qayta bo'lish jarayonini, ham mahsulotni foydalanish maqsadiga ko'ra (masalan, bolalar va kattalar oyoq kiyimlari), ham foydalanilgan xomashyo turini hisobga olgan holda amalga oshirish tavsiya etiladi.

29. Har bir vakil tovar (xizmat)lar bo'yicha asosiy xususiyatlari, shuningdek, zarur hollarda, tovar (xizmat)larni yetkazib berish shartlari, to'lov shakli, qo'llaniladigan chegirmalar va boshqa savdo shartlari ko'rsatilgan tavsiflari belgilanishi lozim.

30. Shu bilan birga, tanlab olingan vakil tovar (xizmat)larning tavsiflari hisobot yili davomida o'zgarmas bo'lishi muhim hisoblanadi.

31. Yil davomida sifat va miqdoriy tavsiflari o'zgarmaydigan tovarlar va xizmatlarning aniq bir turini tanlash imkoni bo'lmagan hollarda, shuningdek, uzoq ishlab chiqarish davriyligiga ega bo'lgan alohida tovarlar va xizmatlar uchun narxlar o'zgarishi hisob-kitoblarini yuritish maqsadida "namunaviy model"ni shakllantirish usuli qo'llanilishi lozim. Bunday holatda, tayanch (bazaviy) korxona tomonidan joriy davrda "namunaviy model" sifatida qabul qilingan mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar yig'indisi ishlab chiqaruvchi narxi sifatida qabul qilinadi.

32. Ta'kidlash lozimki, ishlab chiqaruvchilar narxlari kuzatuvlari tanlanmasiga korxona umumiy ishlab chiqarishida asosiy salmoq ulushiga hamda u yoki bu faoliyat turiga mansubligidan qat'i nazar iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tovar (xizmat) turlari kiritilishi shart. Ya'ni, bitta tayanch (bazaviy) korxonada asosiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotga mansub bo'lgan tovar (xizmat) turi bilan birgalikda, asosiy bo'lmagan tovar (xizmat) turi ham kuzatilishi mumkin.

3-§. Sanoat mahsulotlarining narxlarini ro'yxatga olishning asosiy tamoyillari

33. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksleri, kuzatilayotgan tayanch korxonalarda vakil tovar (xizmat)lar narxlarini ro'yxatga olish asosida hisoblanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning narxlari, sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlarning ro'yxatga olish vaqtida haqiqatda yuzaga kelgan narxlarini ifodalaydi.

34. Korxonalarda narxlarni ro'yxatga olishni har oyning 15- sanasidan 20- sanasigacha bo'lgan davrda o'tkazish tavsiya etiladi. Ushbu tavsiya yirik bilan birga kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch korxonlarga taalluqlidir. Bunda, tovarning har bir turini ro'yxatga olish kuni, joriy yilning barcha oylari davomida doimiy bo'lib qolishi hamda shu tovar turlari narxlarini avvalgi va kelgusi ro'yxatga olish oralig'idagi muddat bir kalendar oyiga teng bo'lishi lozim.

35. Narxlarni ro'yxatga olish tayanch korxona mutaxassislari tomonidan yuklab jo'natilgan mahsulotlar hujjatlaridagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Agar ro'yxatga olish davrida mahsulot yuklab jo'natilmagan bo'lsa, u holda hisobot shaklida, hisobot oyi davomida ro'yxatga olish kuniga yaqin kunlarda yuklab jo'natilgan yoki yuklab jo'natilishi kutilayotgan mahsulot narxlari ko'rsatiladi.

36. Agar hujjatlarda tovarlar (xizmatlar) narxlari va miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar nomenklaturada nazarda tutilganidan farqlanadigan o'lchov birliklarida aks ettirilgan bo'lsa va talab etiladigan o'lchov birliklariga qayta hisoblash koeffitsiyentlari aniq bo'lsa, hisobot shaklida hisoblangan narx va miqdor qayd etiladi.

37. Qoidaga ko'ra, joriy oyda ishlab chiqarilgan va yuklab jo'natilgan mahsulotning, ishlab chiqaruvchilarning narxlaridan tashqari olinadigan va mahsulot tannarxiga qo'shilmaydigan soliqlarsiz (QQS, aksiz va mahsulot tannarxiga kiritilmagan qo'shimcha soliqlarsiz), haqiqiy narxlari ro'yxatga olinishi lozim. Bundan tashqari, ustama savdo narxi (yoki chegirma) va ishlab chiqaruvchining mahsulotni xaridorga yetkazib berishi bilan bog'liq transport xarajatlari, shuningdek, tovarlarni qadoqlash, saqlash, transport vositalariga yuklash bilan bog'liq bo'lgan va shu kabi boshqa xarajatlar mahsulot narxiga qo'shilmaydi.

38. Qadoqlangan holda ishlab chiqariladigan (o'simlik yog'i, vino, shampan vinosi va h.) tovarlar bo'yicha, qadoq (idish) narxi mahsulot tannarxiga qo'shiladi hamda bunday tovarlar uchun narxlar qadoqlash xarajatlarini qo'shgan holda qayd etiladi. Tayanch korxonada qadoqlar (idish) o'zgargan hollarda, ushbu o'zgarishlar sifat o'zgarishlari sifatida qabul qilinadi va ushbu korxonalar mutaxassislari bilan kelishilgan holda narxga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

39. Narxlarni ro'yxatga olishda, narxlarning real dinamikasini aks ettira olmaydigan, juda past yoki o'ta yuqori darajadagi narxlarga ega bo'lgan mahsulotlarning sotilishida "bir martalik tasodifiy" iste'molchilarning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Narxlarning keskin o'zgarishiga sababchi bo'lgan iste'molchilarni almashtirish holatlari, ro'yxatga olingan mahsulotlarning hisobot davridagi va o'tgan davrdagi narxlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslashga imkon bermaydigan o'zgarishlar sifatida qaralishi kerak.

40. Yil boshida tanlanmaga yangidan qo'shilgan tovarlar (xizmatlar) uchun o'tgan yilning dekabr oyidagi tayanch narx qayd etilishi lozim. O'tgan yilning dekabr oyidagi narxni olish imkonini mavjud bo'lmagan hollarda, o'tgan yilning dekabr oyiga yaqin bo'lgan oyidagi narx tayanch narx sifatida foydalanilishi mumkin. Ba'zi hollarda (masalan, mavsumiy mahsulotlar yoki korxona yangi yil oldi chegirmalarning qo'llanilishi) tayanch narx sifatida o'tgan yilning IV choragidagi o'rtacha narxdan foydalanish mumkin. Uchrashi mumkin bo'lgan barcha hollarda, tayanch narx qiymati to'g'risidagi qaror tayanch korxona mutaxassislari bilan birgalikda qabul qilinishi shart.

41. Ishlab chiqaruvchilar narxlarini qayd qilishning asosiy tamoyillaridan biri, bu narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarning taqqoslamaligini ta'minlashdir. Texnik xususiyatlari aniq, batafsil bayon qilingan tovarlar narxlarining kuzatuvlari sifat o'zgarishlari ta'sirini hisobga olmaslik hamda faqatgina narx o'zgarishlarini aks ettirish imkonini yaratadi.

42. Hisobot davrida biror bir mahsulot turini (nav, sinf, artikul va h.k) iste'mol xususiyatlari bir xil bo'lgan boshqa bir mahsulot turlariga almashtirishga oldin ishlab chiqarilgan mahsulotlar turlari bo'yicha narx ma'lumotlarini olish imkoniyati mavjud bo'lmagan (ishlab chiqarishning to'xtalishi, ishlab chiqarish nomenklaturasining o'zgarishi va boshq.) hollarda yo'l qo'yiladi.

43. Agar tayanch korxonaning yopilishi, ishlab chiqarishning butunlay to'xtatilishi yoki tayanch korxonada narxlarni kuzatishni amalga oshirish imkonini bermaydigan fors-major holatlar to'g'risida boshqa axborotlar olinsa, u holda hududda aynan xuddi shunday mahsulot ishlab chiqarayotgan, boshqa korxona bor-yo'qligi tekshirib chiqilishi lozim. Mazkur holatda kuzatuvdagi korxona va kuzatilayotgan mahsulot turini aynan o'xshashiga almashtirish kerak. Agar bunday mahsulot turi hududda yoki respublikada ishlab chiqarilmayotgan bo'lsa, ushbu mahsulot kuzatuvdan chiqarib tashlanadi va oldingi oylar uchun jamlanma indeks qatorlari qayta hisoblanadi. Yo'qolib borayotgan mahsulot turini optimal tarzda boshqasiga almashtirish uchun, hisob-kitoblarda ishtirok etayotgan mahsulotdan tashqari, shu mahsulot turiga aynan o'xshash xususiyatga ega bo'lgan tovar turlarini boshqa korxonalarda qo'shimcha ravishda kuzatish tavsiya etiladi.

44. Agar tayanch korxonaning yopilishi yoki qaysidir mahsulot turini ishlab chiqarish to'xtatilishi vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lsa (2-3 oy), u holda, "shartli" narxlarni hisoblashning mumkin bo'lgan usullaridan birini qo'llash lozim (batafsil 4-§ bo'limda).

45. Kelib tushayotgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun hisobot va savolnoma shaklini olgan vaqtda avtomatik tarzda amalga oshiriladigan birlamchi ma'lumotlarni tekshirish tizimi ishga tushirilgan. O'tkazilgan tekshirishlar natijasi statistika organlarining ma'lumotlarni qabul qilishga mas'ul xodimlari tomonidan tahlil qilinadi.

46. Ma'lumotlarda xatoliklar va kamchiliklar aniqlangan hollarda, ma'lumotlarni qabul qilishga mas'ul xodimlar ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida tayanch korxona mutaxassislari bilan bog'lanadilar.

4-§. Tovarlar vaqtinchalik kuzatuvda mavjud bo‘lmagan hollarda “shartli” narxlarni hisoblash va mavsumiy tovarlar narxlarini ro‘yxatga olishning xususiyatlari

47. Sanoat ishlab chiqarishining beqarorligi sharoitida ma’lum texnik parametrlarga ega bo‘lgan bir xil turdagi tovarlarning narxini uzoq vaqt davomida kuzatib borish qiyin. Bundan tashqari, ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning mavsumiy xarakteri uzoq vaqt davomida taqqoslanadigan mahsulotlarning narxlari to‘g‘risida ma’lumotlarning yetishmasligidan dalolat beradi. Shu sababli, narx indekslarini hisoblash uchun ishlab chiqariladigan tovarlar assortimenti (modellarini, buyumlarini) almashganda sifat o‘zgarishlarining ta’sirini istisno qiladigan, shuningdek, narx indekslarini hisoblash uchun vaqt qatorlarining uzluksizligini ta’minlashda hisoblangan (shartli) narxlardan foydalanish zaruriyati vujudga kelishi mumkin.

48. Shartli narxlarni hisoblash davomida indeks qatorlari hisob-kitoblari uzluksizligini ta’minlash maqsadida quyidagi usullardan foydalaniladi:

boshqa tayanch korxonalarda bir xil turdagi tovar (xizmat) narxi o‘zgarishidan (1- ilovadagi 1- shartli misol);

vaqtinchalik kuzatuvda mavjud bo‘lmagan tovar mansub bo‘lgan vakil tovar, tovar guruhi bo‘yicha o‘rtacha narxlar o‘zgarishidan (1-ilovadagi 2- shartli misol);

mos faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha narxlar o‘zgarishidan (1-ilovadagi 3- shartli misol);

tovar (xizmat)ni ishlab chiqarish uchun xarajatlar o‘zgarishini baholashdan (1-ilovadagi 4- shartli misol);

o‘tgan davrdagi mavjud oxirgi kuzatilgan narxni ko‘chirib qo‘yish. Ushbu usul faqatgina davlat tomonidan tartibga solinadigan (masalan, elektrenergiyasi) narxlarga, agarda hisobot davrida tasdiqlangan narxnomalarda o‘zgarishlar kuzatilmaganligi ma’lum bo‘lsagina qo‘llanilishi mumkin.

49. “Shartli” narxni hisoblashning muayyan usulini tanlash mavjud ma’lumotlar bazasini tahlil qilish asosida va zarur hollarda tayanch korxona mutaxassislarini jalb qilgan holda (masalan, tovar (xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari o‘zgarishini baholash usulidan foydalanganda) amalga oshiriladi.

50. Kuzatilayotgan ayrim turdagi sanoat tovarlarini ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, ularni ishlab chiqarish yilning faqat ma’lum bir oylarida amalga oshiriladi. Bu kiyimlar va poyabzalning ayrim turlarini ishlab chiqarish, mevalar va sabzavotlarni qayta ishlashga taalluqlidir. Ushbu tovarlarni ishlab chiqarish to‘xtatilgan davrlarda korxonalar odatda, hisobotlarda ularning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettirmaydilar. Biroq, ushbu turdagi tovarlarni ishlab chiqarish vaqtinchalik to‘xtatilgan davrda ularni yuklash (sotish) davom etishi mumkin. Ushbu holatlarda korxonalarning hisobotlarida yuklab jo‘natilgan tovarlarning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishi lozim. Boshqa holatlarda, “shartli” narxlarni hisoblash usullaridan biri qo‘llaniladi.

5-§. Tovar (xizmat)lar sifati o'zgaranda narxlarni ro'yxatga olish

51. IChNini shakllantirishdagi muhim shartlardan biri bu – ko'rsatkichda faqatgina narxlar o'zgarishi (inflyatsion omil)ni aks ettirish va tovarning sifat tavsiflari o'zgarishi kabi ta'sir omillarini istisno etishdir. Xususiyatlari aniq, batafsil keltirilgan tovarlar narxlari kuzatuv sifat o'zgarishlari ta'sirini istisno etish va faqatgina narx o'zgarishini aks ettirish imkonini beradi.

52. Tayanch korxonalarda narxlarni ro'yxatga olayotganda o'tgan davrda narxlari ro'yxatga olingan, sifat jihatidan o'xshash tovar (xizmat) narxlarini qayd etish imkoni bo'lmagan hollarda sof narx o'zgarishini aniqlash uchun qayd etilgan ma'lumotlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

53. Sifat jihatidan narxlarni to'g'rilashda quyidagi ikki toifadagi usullardan foydalaniladi:

noaniq yoki bilvosita ("implitsit") to'g'rilash;

aniq yoki bevosita ("eksplitsit") to'g'rilash.

54. Noaniq ko'rinishdagi to'g'rilashlar uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

"Birlashtirish" usuli

Ushbu usul, agar eski va yangi tovar narxlarini parallel tarzda ro'yxatga olish imkoniyati bo'lsa, qo'llaniladi. "Birlashtirish" usuli taklifga asoslangan bo'lib, ma'lum sifat tavsiflariga ega kuzatuvda mavjud bo'lmagan tovar bilan uni almashtiruvchi tovar narxlari o'rtasidagi yagona farq, ularning sifatidagi farqlar bilan bog'liq. Buning uchun tanlanmada o'rin almashtirishdan foydalaniladi. Mahsulotlarning eski tanlanmasi o'tgan davr uchun (t-1) undan oldingi davrga nisbatan (t-2) ushbu mahsulot toifasi bo'yicha narx indeksini hisoblashda foydalanilsa, yangi tanlanmadan hisobot davrida (t) o'tgan davrga (t-1) nisbatan narx indeksini hisoblash uchun foydalaniladi (1-ilovadagi 5- shartli misol).

"Narxlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash" usuli

Ushbu usuldan istisno hollarda **sifat jihatidan uncha katta farq qilmaydigan** mahsulotlar uchun hamda boshqa o'zgartirish kiritish usullaridan foydalanish uchun qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda foydalaniladi. "Narxlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash" usuli yaxshilangan sifatga ega yangi mahsulot narxini oldin ro'yxatga olingan mahsulot narxi bilan taqqoslashni nazarda tutadi. Ushbu usulni faqatgina vakil tovar (xizmat) to'liq tavsifga ega bo'lgan hollardagina qo'llash mumkin. Almashayotgan turlarning kichik sifat o'zgarishlarini doimiy inkor etish hisobiga narxlar indeksining tizimli ravishda ko'tarilib borishi ushbu usulning kamchiligi hisoblanadi (1-ilovadagi 6- shartli misol).

Narxlar o'zgarishi tovarning iste'mol xususiyatlariga ta'sir etmaydigan omillarga bog'liq bo'lishi sharti bilan uchraydigan ayrim hollarda ham eski va yangi tovarlar narxlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslashlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Masalan, o'tgan davrda tayanch korxona suyuq dori vositasini shisha ampulalarga solingan holda ishlab chiqargan, joriy davrda esa – polietilen kapsulalarga solingan holda ishlab chiqargan. Ammo, dori vositasining hajmi va boshqa sifat ko'rsatkichlari saqlab qolingani, shuning uchun, dori vositasining o'tgan va joriy davrdagi narxlarini to'g'ridan-to'g'ri solishtirishni amalga oshirsa bo'ladi.

“Umumiy o'rtachani shartli hisoblash” usuli

“Umumiy o'rtachani shartli hisoblash” usuli “birlashtirish” usulini qo'llash imkonini mavjud bo'lmagan hollarda, sifat jihatidan katta farq qiladigan hamda ishlab chiqarishdan olib tashlangan mahsulotlar uchun “shartli” narxlarni qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu usul guruh ichidagi boshqa, o'xshash mahsulot turining yoki boshqa tayanch korxonadagi o'xshash mahsulotning narx o'zgarishlari asosida “shartli” narx hisoblashni nazarda tutadi (1-ildovadagi 2- shartli misol).

55. Aniq va to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirishlarda eski va yangi tovarlar o'rtasidagi sifat o'zgarishlari qiymati baholanadi hamda turli sifatga ega ikkita tovarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqdan kelib chiqib, ikkita narxlardan biriga o'zgartirish kiritiladi (odatda, tayanch narxga).

56. Aniq va to'g'ridan to'g'ri o'zgartirishlar kiritish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

“Miqdorga o'zgartirish kiritish” usuli

Ushbu usul, oldingi mavjud bo'lgan mahsulotga qaraganda boshqa o'lcham (hajm)dagisiga almashtirilayotgan mahsulotga nisbatan, miqdoriy o'zgarishlar mahsulot sifatiga ta'sir etmagan hollarda qo'llaniladi. Ushbu usuldan, masalan, ichimliklar, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, qadoqlash (idish) uchun xarajatlarning o'zgarishi hisobiga mahsulot narxi o'zgarishlarini baholash imkonini mavjud bo'lsa, u holda tayanch korxona mutaxassislari bilan ushbu baholash o'tkaziladi. Aksincha hollarda esa, tovar qadog'i o'zgarishlarini hisobga olgan holda oddiy narx o'zgartirishlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, agar yangi tovar eskisining o'rniga uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqarilishi ma'lum bo'lsa, u holda o'tgan davrda ro'yxatga olingan narx o'zgartiriladi. Agarda, yangi tovarni ishlab chiqarish qisqa muddat davom etsa hamda eski tovarni ishlab chiqarishga qaytiladigan bo'lsa, u holda yangi tovarning narxi o'zgartiriladi.

“Ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqlarni hisoblash” usuli

Ushbu usul xar hil sifatga ega ikkita o'xshash turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarning o'zgarishi darajasidan kelib chiqqan holda mahsulotning sifat o'zgarishlarini baholashni nazarda tutadi. To'g'rilash uchun eski tovar narxiga yangi tovarga qo'shimcha xususiyatlar joriy etish (olib tashlash) uchun qilingan xarajatlar qiymati kattaligi qo'shiladi (ayriladi). Ushbu usul, masalan, avtomobilsozlik sanoatida, agar ishlab chiqarilgan avtomobillarning barcha xususiyatlari batafsil tavsiflangan va tayanch korxonalar mutaxassislari bilan batafsil baholash va sifat hamda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoni bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

6-§. Yig'ma narxlar indekslarini hisoblash uchun ko'rsatkichlarni o'lchash tizimini shakllantirish

57. O'lchash tizimlarini shakllantirishda sanoat korxonalarining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati to'g'risidagi yillik statistik hisobotlari ma'lumotlari asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning qiymat hajmlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlarni ishlab chiqish davrini hisobga olgan holda tayanch davrning joriy davrdan kechikishi 2 yilni tashkil etadi.

O'lchash tizimlarini shakllantirish Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 3-ildavda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

58. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksini o'lchash tizimini shakllantirish maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

a) dastlabki bosqichda vaznlar uchun tayanch yil deb qabul qilingan yil uchun ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining haqiqiy narxlardagi qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir)ning iyerarxik tuzilmasiga muvofiq, tayanch korxonalar, kichik sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar, seksiyalar bo'yicha taqsimlanadi.

b) vaznlar uchun tayanch yil deb qabul qilingan yil uchun ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari umumiy hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida iyerarxik tuzilmaga muvofiq har bir pozitsiya uchun salmoq vazn (ulush) hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir umumlashtirish (agregatlash) darajalarida quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

$$\sum W_{0i} = 1; \quad \sum W_{0j} = 1; \quad \sum W_{0k} = 1, \quad \sum W_{0g} = 1, \quad \sum W_{0r} = 1, \quad \sum W_{0s} = 1,$$

bu yerda

W_0 – bazaviy salmoq vaznlar

i – tayanch korxona bo'yicha kichik sinflarga taalluqli tovar pozitsiyalari

j – sinflarga taalluqli kichik sinflar

k – guruhlarga taalluqli sinflar

g – bo'limlarga taalluqli guruhlar

r – seksiyalarga taalluqli bo'limlar

s – sanoat faoliyatiga taalluqli seksiyalar

v) keyingi bosqichda, sanoat ishlab chiqarishining o'rtacha yillik tuzilmasidan o'tgan yilning dekabr oyidagi narxlarda shu kabi tuzilmaga o'tkazish bilan bog'lash (muvofiglashtirish) amalga oshiriladi. Ushbu bog'lash, vazn ko'rsatkichlari shakllantirilayotgan yil bo'yicha yillik o'rtacha narxlar indeksining o'tgan yilning dekabr oyidagi narxlar indeksiga nisbati bilan aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyentlari yordamida amalga oshiriladi. O'rtacha narxlar indeksi tayanch yil oylarining o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narxlar indeksleri o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. Salmoq vaznlarning yangi aniqlangan qiymatlari har bir iyerarxik darajada kirish komponentlari uchun vaznlar yig'indisi 1 ga teng bo'lishi uchun normallashtiriladi. Natijada, aniqlangan qiymatlardan narxlar indekslarini hisoblashda salmoq vaznlar sifatida foydalaniladi.

59. Indeks faqat narx o'zgarishini aks ettirishi uchun, o'lchash tizimi muayyan bir davr (bir yildan kam bo'lmagan) mobaynida o'zgarishsiz qoldiriladi.

60. Qurilish materiallariga narxlar indeksini aniqlash uchun qo'shimcha narxlar indeksi guruhi shakllantiriladi. Ushbu indeks Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir) bo'yicha boshqa guruhlariga kiradigan alohida qurilish materiallari narxlari o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda, ulushlarni shakllantirish uchun, ulushlar uchun bazaviy davr etib qabul qilingan yil davomida tanlab olingan pozitsiyalar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati to'g'risidagi tegishli ma'lumotlardan foydalaniladi. Indeksni hisoblash, boshqa guruhlardagi narx indekslarini hisoblash uslubiyati va formulasi bilan bir xil.

7-§. Ishlab chiqaruvchilarning narx indekslarini hisoblash va ularning o'rtacha oylik kattaliklarini aniqlash

61. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar narxlari indeksini hisoblash tayanch korxonalardan olingan narxlarga oid ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Kuzatilayotgan mahsulotning har bir turi bo'yicha hisobot davri uchun narx va keyinchalik yuqori darajadagi guruhlariga umumlashtiriladigan oldingi davrga nisbatan narx o'zgarishlarining nisbiy kattaligi hisoblanib aniqlanadi.

62. Qisqa davrli individual narxlar indeksi alohida tovar turlari uchun hisoblanadi va o'zi bilan birga aniq (ma'lum) tovar turlarining joriy oydagi narxlarini o'tgan oydagi narxlarga nisbatini ifodalaydi:

$$STR_{i(t)} = \frac{P_{i(t)}}{P_{i(t-1)}},$$

bunda

$STR_{i(t)}$ – hisobot (t) oyidagi (i) tovar turining qisqa davrli narx indeksini o'tgan oyga (t-1) nisbati;

$P_{i(t)}$ – tovar (i) turining joriy (t) oyidagi narxi;

$P_{i(t-1)}$ – tovar (i) turining o'tgan (t-1) oyidagi narxi.

63. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq davrli individual narx indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$LTR2_{i(t)} = \prod_{m=1}^t STR_{i(m)}$$

bunda

$LTR2_{i(t)}$ – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan tovarning (i) joriy (t) oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

m – oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

64. Individual narx indekslari asosida hisoblangan tovar turlaridan jamlanma narx indekslari hisoblanadi.

65. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi turli darajadagi agregatsiyalashgan guruhlar bo'yicha hisoblanadi (vakil tovarlar bo'yicha, quyi sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar, seksiyalar va jami sanoat sohasi bo'yicha).

66. Ishlab chiqaruvchilar narxlari umumlashgan indeksini hisoblashda ikki xil statistik ma'lumotdan foydalaniladi:

a) tayanch yil salmog'i (vazn) tuzilishi;

b) kuzatilayotgan mahsulot turlarining individual narx indekslari.

67. Jamlanma narx indekslarini hisoblash uchun modifikatsiyalangan **Laspeyres** formulasidan foydalaniladi.

68. IChNini hisoblash yuqoridagi formulalar bo'yicha, yana barcha pozitsiyalar ishtirokida amalga oshiriladi. *keyingi band bilan o'rni almashdi.*

yanvar oyida: o'tgan oyga nisbatan **qisqa muddatli indekslar** va o'tgan yilning dekabriga nisbatan uzoq muddatli indekslar ko'rsatkichlari barobar bo'ladi va quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$STR_{j(yan)} = LTR2_{j(yan)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(yan)} \times W_{0i}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}} - \text{kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(yan.)} = LTR\ 2_{k(yan.)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(yan.)} \times W_{0j}}{\sum_{i=1}^n W_{0j}} - \text{sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(yan.)} = LTR\ 2_{g(yan.)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(yan.)} \times W_{0k}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(yan.)} = LTR\ 2_{r(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{g(yan.)} \times W_{0g}}{\sum_{r=1}^n W_{0g}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(yan.)} = LTR\ 2_{s(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(yan.)} \times W_{0r}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}} - \text{seksiyalar bo'yicha,}$$

$$STR_{L(yan.)} = LTR\ 2_{L(yan.)} = \frac{\sum_{s=1}^n STR_{s(yan.)} \times W_{0s}}{\sum_{s=1}^n W_{0s}} - \text{umumiy sanoat faoliyati bo'yicha,}$$

bunda

$STR_{(jan)}$ o'tgan oyga nisbatan yanvar oyidagi qisqa davrli narx indeksi;

$LTR\ 2_{(jan)}$ o'tgan yilning dekabriga nisbatan yanvar oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

i tovar

j kichik sinf

k sinf

g guruh

r bo'lim

s seksiya

L sanoat faoliyati

W_{0i}, W_{0j} mos tovar (i) bo'yicha, kichik sinf (j), sinf (k), guruhning (g), seksiya (s), bo'lim (r), ishlab chiqarish faoliyati (L) salmoq vazni,

W_{0g}, W_{0r}

$W_{0s},$

W_{0L}

n sanoat faoliyatiga mos ravishda kichik sinf, sinf, guruh, bo'lim, seksiyaga kiritilgan pozitsiyalar soni.

69. Fevral oyidan boshlab narxlar indeksini hisoblash yanvar oyidagi kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, biroq, o'tgan yilning dekabriga nisbatan (*LTR 2*) uzoq muddatli jamlanma indekslar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$LTR2_{j(t)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(t)} \times V_{i(t-1)}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}}, \text{ bunda } V_{i(t-1)} = W_{0i} * \prod STR_{i(t-1)} \quad - \text{ kichik sinflar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{k(t)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(t)} \times V_{j(t-1)}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}}, \text{ bunda } V_{j(t-1)} = W_{0j} * \prod STR_{j(t-1)} \quad - \text{ sinflar bo'yicha;}$$

$$LTR2_{g(t)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(t)} \times V_{k(t-1)}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}}, \text{ bunda } V_{k(t-1)} = W_{0k} * \prod STR_{k(t-1)} \quad - \text{ guruhlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{r(t)} = \frac{\sum_{g=1}^n STR_{g(t)} \times V_{g(t-1)}}{\sum_{g=1}^n W_{0g}}, \text{ bunda } V_{g(t-1)} = W_{0g} * \prod STR_{g(t-1)} \quad - \text{ bo'limlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{s(t)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(t)} \times V_{r(t-1)}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}}, \text{ bunda } V_{r(t-1)} = W_{0r} * \prod STR_{r(t-1)} \quad - \text{ seksiyalar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{L(t)} = \frac{\sum_{s=1}^n STR_{s(t)} \times V_{s(t-1)}}{\sum_{s=1}^n W_{0s}}, \text{ bunda } V_{s(t-1)} = W_{0s} * \prod STR_{s(t-1)} \quad - \text{ sanoat faoliyati}$$

bo'yicha.

fevral oyidan boshlab qisqa muddatli indekslar o'tgan oyga nisbatan quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$STR_{j(t)} = \frac{LTR\ 2_{j(t)}}{LTR\ 2_{j(t-1)}} \quad - \text{ kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(t)} = \frac{LTR\ 2_{k(t)}}{LTR\ 2_{k(t-1)}} \quad - \text{ sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(t)} = \frac{LTR\ 2_{g(t)}}{LTR\ 2_{g(t-1)}} \quad - \text{ guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(t)} = \frac{LTR 2_{r(t)}}{LTR 2_{r(t-1)}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(t)} = \frac{LTR 2_{s(t)}}{LTR 2_{s(t-1)}} - \text{seksiyalar bo'yicha,}$$

$$STR_{L(t)} = \frac{LTR 2_{L(t)}}{LTR 2_{L(t-1)}} - \text{sanoat faoliyati bo'yicha.}$$

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksidan tashqari quyidagi uzoq muddatli ko'rsatkichlar ham shakllantirildi:

O'tgan yilning tegishli oyiga nisbatan joriy yilning hisobot oyidagi narxlar indeksleri LTR 3: (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 3_{(t)} = \frac{LTR 1_{t(y)}}{LTR 1_{t(y-1)}},$$

bunda

$LTR 3_{(t)}$ hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun o'tgan yilning mos oyiga (t) nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksi $(y-1)$;

$LTR 1_{t(y)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

$LTR 1_{t(y-1)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan o'tgan yilning $(y-1)$ mos oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

Davrning narxlar indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan LTR 4 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 4_{(t)} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y)}}{\sum_{n=1}^t LTR 1_{n(y-1)}},$$

bunda

$LTR 4_{(t)}$ o'tgan yilning mos davriga $(y-1)$ nisbatan hisobot yilining (y) yanvar oyidan joriy oyga (t) qadar uzoq muddatli narxlar indeksi;

n oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

Bundan tashqari, narx indeksleri har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun o'tgan chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan ham hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi formulalar qo'llaniladi:

Hisobot yili joriy choragining narxlar indeksi o'tgan chorakka nisbatan LTR 5 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 5_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(q-1)}}$$

bunda

$LTR 5_{(q)}$ joriy chorak narx indeksi (q) o'tgan chorakka nisbatan (q-1);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

Hisobot yili joriy choragining o'tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar indeksi $LTR 6$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 6_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y-1)}}$$

bunda

$LTR 6_{(q)}$ o'tgan yilning mos choragiga nisbatan (y-1) hisobot yili (y) joriy chorak narx indeksi (q);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3)..

Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qo'shimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 7$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 7_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(z)} / 12}$$

bunda

$LTR 7_{(q)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

$LTR 1_{(y)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan hisobot yilining uzoq muddatli indeksi (y);

$LTR 1_{(z)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan bazaviy yilning uzoq muddatli indeksi (z);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chi chorakning birinchi oyi, 2- chi ikkinchi oyi va 3- chi uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy choragining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 8$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR8_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR1_{m(y)} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)} / 12}$$

bunda

$LTR 8_{(q)}$ joriy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chi chorakning birinchi oyi, 2- chi ikkinchi oyi va 3- chi uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining tayanch (bazaviy) yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 9$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR9_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(z)} / 12}$$

bunda

$LTR9_{(t)}$ bazaviy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 10$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR10_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)} / 12}$$

bunda

$LTR10_{(t)}$ hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n oyning tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyining hisobot yilining o'rtacha yillik narxlariga narxlar indeksi (LTR8 va LTR10) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan so'ng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (LTR8) va oy uchun (LTR10) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

70. Narxlar indeksining o'rtacha oylik ko'rsatkichlari o'rtacha geometrik kattalikni hisoblash formulasidan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{STR_1 * STR_2 * ... * STR_n}$$

bu yerda:

$\overline{I_p}$ – birinchi oydan n -chi oygacha davr uchun o'rtacha oylik narx indeksi;

STR – o'tgan oyga nisbatan har bir oy uchun qisqa muddatli narx indeksi;

p – oylar soni.

71. Yil boshidan bo'lgan davr uchun o'rtacha oylik narx indeksini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{LTR_2},$$

bunda

$\overline{I_p}$ – birinchi oydan n -chi oygacha davr uchun o'rtacha oylik narx indeksi;

LTR_2 – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan n -chi uchun narx indeksi;

n – oyning tartib raqami.

8-§. Ishlab chiqaruvchilarning o'rtacha narxlarini hisoblash

72. Sanoat ishlab chiqarishidagi narx holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri bu sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'rtacha narxlari darajasidir. Tovarlar bo'yicha narxlar o'rtacha geometrik formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\overline{P_t} = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n P_{i(t)}},$$

bunda,

- $\bar{P}_t$ tovar bo'yicha joriy davr uchun (t) o'rtacha narx
- $P_{i(t)}$ har bir tayanch korxona bo'yicha mazkur tovar yoki xizmat turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan tovar yoki xizmat bo'yicha ishlab chiqaruvchilarning joriy oy (t) uchun narxi (i);
- n mazkur tovar (xizmat) turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan tovar ishlab chiqaruvchi tayanch korxonalar soni.

Yuqorida keltirilgan formula aniq bir oy bo'yicha o'rtacha narx darajasini hisoblash uchun ishlatiladi.

73. Chorak va yil boshidan o'rtacha narxlarni hisoblashda, chorak yoki yil boshidan hisoblangan davrga kiruvchi har bir oyning o'rtacha narxlaridan, o'rtacha arifmetik, o'rtacha kattalik formulasidan foydalaniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, narxlarni kuzatib borish va IChNI hisoblash uchun korxonalar va vakil-tovar (xizmat)lar namunalarining muntazam yangilanib turishini hisobga olgan holda, o'rtacha narxlar yillik dinamikasining inflyatsion (ishlab chiqaruvchilar tomonidan narxlarning to'g'ridan-to'g'ri o'sishi bilan bog'liq) va inflyatsiyasiz (korxonalar va tovarlar namunalarining o'zgarishi bilan bog'liq) omillarini aks ettiradi.

§9. Ma'lumotlarni tahlil qilish

74. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida IChNI to'g'risidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika ma'lumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

75. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, ma'lumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni ko'rib chiqish, shakllantirilgan ma'lumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

IChNI to'g'risidagi statistika ma'lumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yo'qligi), yaxlitligi (qamrovning to'liqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyliigi (hudud, qamrab olingan ob'ektlar doirasi, o'lchov birligi va boshqalar bo'yicha), bir xilda tuzilganligi (ma'lumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin o'zgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari ko'rib chiqiladi.

76. Ma'lumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekshirish ishlari birlamchi ma'lumot qamrovi ko'rsatkichi va savolnoma bo'yicha taqdim etilgan javoblar koeffitsiyentining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish, statistika ma'lumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlarini o'z ichiga oladi.

77. Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida IChNI to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

78. Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar tayanch korxonalar va ular bo'yicha individual ma'lumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish bo'yicha choralar qo'llash amalga oshiriladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

79. IChNIning tarqatish GSBPMning VII bosqichida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

XVJ tomonidan ishlab chiqilgan Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT) standartiga muvofiq, IChNI har oy nashr jadvaliga muvofiq e'lon qilinadi. Ma'lumotlar bir vaqtning o'zida barcha foydalanuvchilarga jadval materiallari shaklida Statistika agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish orqali tarqatiladi. Kichik sinflar, sinflar, guruhlar, bo'limlar va seksiyalar bo'yicha batafsil narxlar indekslari to'g'risidagi ma'lumotlar statistik byulletenlarda va to'plamlarda nashr etiladi.

Foydalanuvchilarga yordam tariqasida IChNI qisqa uslubiy tushuntirishlar bilan birga nashr etiladi.

Nashrlar va rasmiy xabarlarda IChNI to'g'risidagi ma'lumotlar butun sondan keyin bitta belgi bilan e'lon qilinadi.

80. Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishlab chiqaruvchilarning narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: nazariya va amaliyot (BMT, YeIK, XVF, XMT, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Jahon banki) 2004- y. <http://www.imfbookstore.org>, <http://www.cisstat.org>;
2. “Choraklik milliy hisoblar bo‘yicha qo‘llanma” 2017- yildagi nashr// Xalqaro valyuta jamg‘armasi – 2018- y.
3. “O‘zbekiston. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi bo‘yicha missiya hisoboti (2020- yil 26-oktabr – 6-noyabr)” B. Graf, 2021- yil 25- mart;
4. “O‘zbekiston. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi bo‘yicha missiya hisoboti (2021- yil 12-16 iyul). Texnik hisobot” B. Graf, 2021- yil 12- noyabr;
5. “Методика по расчету сводного индекса цен производителей промышленной продукции”, Belarus Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 11.01.2018- y. (<https://www.belstat.gov.by/metodologiya/metodiki-po-formirovaniyu-i-raschetu-statistichesk/>);
6. «Официальная статистическая методология по организации статистического наблюдения за ценами производителей промышленных товаров и расчету индексов цен производителей»// Rosstatning 2016- yil 17- noyabrdagi 729- son buyrug‘I bilan tasdiqlangan Davlat statistikasi federal xizmati. (https://gks.ru/bgd/free/meta_2010/Main.htm)
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti O‘zDT 005: 2011. Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT, 2-tahrir).

“Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari
narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy
nizom”ga
1-ilova

1- shartli misol

**Boshqa tayanch korxonalarda narx o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida bir xil turdagi
tovar (xizmat)ning “mavjud bo'lmagan” narxini shartli hisoblanishi**

Korxona	O'tgan yil dekabr oyi	Yanvar	Fevral	Mart
1- korxona	10000	10000	11000	11000
2- korxona	10000	10000	10000	10000
3- korxona	9000	10000	11000	12000
4- korxona	12000	12000	12000	(12353)

O'rtacha solishtirma

joriy oy 10970 $a=(11000 \times 10000 \times 12000)^{1/3}$
avvalgi oy 10656 $b=(11000 \times 10000 \times 11000)^{1/3}$
oylik o'zgarish **1,0294** $s=a/b$

“shartli” narxni hisoblash tovarning haqiqiy narxi paydo bo'lgungacha amalga oshiriladi.

Shartli narx = “mavjud bo'lmagan tovar”ning o'tgan oydagi narxi * boshqa tayanch korxonalar
uchun o'rtacha narx o'zgarishi.

2- shartli misol

“Mavjud bo'lmagan” narxni “shartli o'rtacha” asosida shartli hisoblanishi

Mahsulot	Korxona	Aprel	May	Iyun	Narx o'zgarishi, % da
Mayka, futbolka va boshqa kiyimlar, qo'lda yoki mashinada to'qilgan trikotajlar		2173438	2198863	2266562	103,1
Ayollar uchun oq mayka	1- korxona	2100000	2100000	2200000	104,8
Ayollar uchun havo rang mayka	2- korxona	2200000	2200000	2300000	104,5
Erkaklar uchun oq mayka	1- korxona	2100000	2200000	2200000	100,0
Erkaklar uchun havo rang mayka	2- korxona	2300000	2300000	(2370813)	(103,1)

O'rtacha solishtirma

joriy oy 2232841 $a=(2200000 \times 2300000 \times 2200000)^{1/3}$
avvalgi oy 2166848 $b=(2100000 \times 2200000 \times 2200000)^{1/3}$
oylik o'zgarish **1,0308** $s=a/b$

“shartli” narxni hisoblash tovarning haqiqiy narxi paydo bo'lgungacha amalga oshiriladi. Shartli

narx = “mavjud bo'lmagan tovar”ning o'tgan oydagi narxi * boshqa tayanch korxonalar uchun
o'rtacha narx o'zgarishi.

**Mos faoliyat turi bo'yicha o'rtacha narxlar o'zgarishining
shartli hisoblanishi**

Faoliyat turi	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr
B sinf	100,3	100,7	100,2	100,8
B1 quyi sinf	100,0	100,8	100,2	100,7
B2 quyi sinf	101,0	100,3	99,8	100,9
B3 quyi sinf	100,0	101,1	100,5	(100,8)

O'rtacha solishtirma

joriy oy	100,8	$a=(100,7*100,9)^{1/2}$
avvalgi oy	100,0	$b=(100,2*99,8)^{1/2}$
oylik o'zgarish	1,008	$s=a/b$

**1 birlik ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishini baholash bo'yicha
shartli hisoblanishi**

Xarajatlar	Noyabr	Dekabr	Narx o'zgarishi, % da
Xomashyo	12000000	14000000	116,7
Amortizatsiya	500000	500000	100,0
Ish haqi	4000000	4000000	100,0
Boshqalar	2000000	2000000	100,0
Foyda	2200000	2200000	100,0
Jami	20700000	22700000	109,7

O'rtacha solishtirma

joriy oy	22700000	$a=(14000000+500000+4000000+2000000+2200000)$
avvalgi oy	20700000	$b=(12000000+500000+4000000+2000000+2200000)$
o'zgarish	109,7	$s=a/b$

“shartli” narxni hisoblash tovarning haqiqiy narxi paydo bo'lgungacha amalga oshiriladi.

**“Birlashtirish usuli” asosida “mavjud bo‘lmagan” narxning
shartli hisoblanishi**

Mahsulot	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Narx o‘zgarishi, % da
1- mahsulot (eski)	90 000	90 000	(91980)	102,2
2- mahsulot (yangi)	-	91 000	93 000	102,2

narx o‘zgarishi $1,022 = 93\,000 / 91\,000$

1- mahsulotning shartli narx $91980 = 90000 * 1,022$

"shartli" narxni hisoblash tovarning haqiqiy narxi paydo bo‘lgunga qadar amalga oshiriladi.

**“To‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash usuli” asosida “mavjud bo‘lmagan” narxning
shartli hisoblanishi**

Mahsulot	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Narx o‘zgarishi, % da
1- mahsulot (eski)	90 000	90 000	(90 500)	100,6
2- mahsulot (yangi)	-	-	90 500	-

narx o‘zgarishi $1,0061 = 90\,500 / 90\,000$

“Ishlab chiqaruvchilarning sanoat
mahsulotlari narxlari indekslarini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizom”ga
2-ilova

1- shartli misol

Shakar vakil-tovari bo'yicha o'tgan oyga nisbatan narx indekslarining shartli hisoblanishi

	Narx, so'mda		O'tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da	
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
(G-2) yil dekabr	5200	x	x	x
yanvar	5300	6000	101,92 (5300/5200*100%)	100,00 (6000/6000*100%)
fevral	5300	6200	100,00 (5300/5300*100%)	103,37 (6200/6000*100%)
mart	5500	6200	103,77 (5500/5300*100%)	100,00 (6200/6200*100%)
aprel	5500	6500	100,00 (5500/5500*100%)	104,84 (6500/6200*100%)
may	5600	6500	101,82 (5600/5500*100%)	100,00 (6500/6500*100%)
iyun	5600	6600	100,00 (5600/5600*100%)	101,54 (6600/6500*100%)
iyul	5700	6600	101,79 (5700/5600*100%)	100,00 (6600/6600*100%)
avgust	5700	6700	100,00 (5700/5700*100%)	101,52 (6700/6600*100%)
sentabr	5800	6700	101,75 (5800/5700*100%)	100,00 (6700/6700*100%)
oktabr	5800	6800	100,00 (5800/5800*100%)	101,49 (6800/6700*100%)
noyabr	6000	6800	103,45 (6000/5800*100%)	100,00 (6800/6800*100%)
dekabr	6000	7000	100,00 (6000/6000*100%)	102,94 (7000/6800*100%)

**Shakar vakil-tovari bo'yicha o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	O'tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da		O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da	
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
yanvar	101,92	100,00	101,92	100,00
fevral	100,00	103,37	101,92 (101,92*100,00/100%)	103,33 (100,00*103,33/100%)
mart	103,77	100,00	105,76 (101,92*103,77/100%)	103,33 (103,33*100,00/100%)
aprel	100,00	104,84	105,76 (105,76*100,0/100%)	108,33 (103,33*104,84/100%)
may	101,82	100,00	107,69 (105,76*101,82/100%)	108,33 (108,33*100,00/100%)
iyun	100,00	101,54	107,69 (107,69*100,00/100%)	110,00 (108,33*101,54/100%)
iyul	101,79	100,00	109,61 (107,69*101,79/100%)	110,00 (110,00*100,00/100%)
avgust	100,00	101,52	109,61 (109,61*100,00/100%)	111,67 (110,00*101,52/100%)
sentabr	101,75	100,00	111,53 (109,61*101,75/100%)	111,67 (111,67*100,00/100%)
oktabr	100,00	101,49	111,53 (111,53*100,00/100%)	113,34 (111,67*101,49/100%)
noyabr	103,45	100,00	115,38 (111,53*103,45/100%)	113,34 (113,34*100,00/100%)
dekabr	100,00	102,94	115,38 (115,38*100,00/100%)	116,67 (113,34*102,94/100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 1 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

**Shakar vakil-tovari bo'yicha bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	O'tgan oyga nisbatan narx indeksi, % da		(G-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da	
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun
A	B	V	G	D
(G-2) bazaviy yil dekabr	100,00	x	100,00	x
yanvar	101,92	100,00	101,92 (100,00*101,92/100%)	115,38 (115,38*100,00/100%)
fevral	100,00	103,37	101,92 (101,92*100,00/100%)	119,22 (115,38*103,33/100%)
mart	103,77	100,00	105,76 (101,92*103,77/100%)	119,22 (119,22*100,00/100%)
aprel	100,00	104,84	105,76 (105,76*100,0/100%)	124,99 (119,22*104,84/100%)
may	101,82	100,00	107,69 (105,76*101,82/100%)	124,99 (124,99*100,00/100%)
iyun	100,00	101,54	107,69	126,92 (124,99*101,54/100%)
iyul	101,79	100,00	109,61 (107,69*101,79/100%)	126,92 (126,92*100,00/100%)
avgust	100,00	101,52	109,61	128,85 (126,92*101,52/100%)
sentabr	101,75	100,00	111,53 (109,61*101,75/100%)	128,85 (128,85*100,00/100%)
oktabr	100,00	101,49	111,53	130,77 (128,85*101,49/100%)
noyabr	103,45	100,00	115,38 (111,53*103,45/100%)	130,77 (130,77*100,00/100%)
dekabr	100,00	102,94	115,38 (115,38*100,00/100%)	134,61 (130,77*102,94/100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 1 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Shakar vakil-tovari bo'yicha joriy yil oylarining o'tgan yil mos oylariga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi

	(G-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		(G) Joriy yil oyining (G-1) o'tgan yilning mos oyga nisbatan narx indeksi, % da
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	
A	B	V	G
yanvar	101,92	115,38	113,21 (115,38/101,92*100%)
fevral	101,92	119,22	116,97 (119,22/101,92*100%)
mart	105,76	119,22	112,73 (119,22/105,76*100%)
aprel	105,76	124,99	118,18 (124,99/105,76*100%)
may	107,69	124,99	116,06 (124,99/107,69*100%)
iyun	107,69	126,92	117,86 (126,92/107,69*100%)
iyul	109,61	126,92	115,79 (126,92/109,61*100%)
avgust	109,61	128,85	117,55 (128,85/109,61*100%)
sentabr	111,53	130,77	115,53 (128,85/111,53*100%)
oktabr	111,53	130,77	117,25 (130,77/111,53*100%)
noyabr	115,38	130,77	113,34 (130,77/115,38*100%)
dekabr	115,38	134,61	116,67 (134,61/115,38*100%)

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Shakar vakil-tovari bo'yicha joriy yil boshidan boshlangan davrning o'tgan yil mos davriga nisbatan narx indekslarining shartli hisoblanishi

	(G-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Yanvardan boshlab narx indekslari yig'indisi		(G) Joriy yil boshidan boshlangan davrning (G-1) o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indeksi, % da
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye=D/G
yanvar	101,92	115,38	101,92	115,38	113,21
fevral	101,92	119,22	203,84 (101,92+101,92)	234,60 (115,38+119,22)	115,09
mart	105,76	119,22	309,60 (203,84+105,76)	353,82 (234,60+119,22)	114,28
aprel	105,76	124,99	415,36 (309,6+105,76)	478,81 (353,82+124,99)	115,28
may	107,69	124,99	523,05 (415,36+107,69)	603,80 (478,81+124,99)	115,44
iyun	107,69	126,92	630,74 (523,05+107,69)	730,72 (603,80+126,92)	115,85
iyul	109,61	126,92	740,35 (630,74+109,61)	857,64 (730,72+126,92)	115,84
avgust	109,61	128,85	849,96 (740,35+109,61)	986,49 (857,64+128,85)	116,06
sentabr	111,53	130,77	961,49 (849,96+111,53)	1115,34 (986,49+128,85)	116,00
oktabr	111,53	130,77	1073,02 (961,49+111,53)	1246,11 (1115,34+130,77)	116,13
noyabr	115,38	130,77	1188,40 (1073,02+115,38)	1376,88 (1246,11+130,77)	115,86
dekabr	115,38	134,61	1303,78 (1188,40+115,38)	1511,49 (1376,88+134,61)	115,93

– Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

**Shakar vakil-tovari bo'yicha joriy yil choragi o'tgan chorakka nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	(G-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Chorakning 1-dan 3-oyigacha narx indeklari yig'indisi		(G) Joriy yil choragi o'tgan chorakka nisbatan narx indeksi, % da
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye
yanvar	101,92	115,38			
fevral	101,92	119,22			
mart	105,76	119,22		353,82 (115,38+119,22+119,22)	103,37 (353,82/342,29*100%)
aprel	105,76	124,99			
may	107,69	124,99			
iyun	107,69	126,92		376,90 (124,99+124,99+126,92)	106,52 (376,9/353,82*100%)
iyul	109,61	126,92			
avgust	109,61	128,85			
sentabr	111,53	130,77		384,62 (126,92+128,85+128,85)	102,05 (384,62/376,9*100%)
oktabr	111,53	130,77			
noyabr	115,38	130,77			
dekabr	115,38	134,61	342,29 (111,53+115,38+115,38)	396,15 (130,77+130,77+134,61)	103,00 (396,15/384,62*100%)

– Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

**Shakar vakil-tovari bo'yicha joriy yil choragi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan
narx indekslarining shartli hisoblanishi**

	(G-2) Bazaviy yilning dekabr oyiga nisbatan narx indeksi, % da		Chorakning 1-dan 3-oyigacha narx indekslari yig'indisi		(G) Joriy yil choragi (G-1) o'tgan yil mos choragiga nisbatan narx indeksi, % da
	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	(G-1) o'tgan yil uchun	(G) joriy yil uchun	
A	B	V	G	D	Ye=D/G
yanvar	101,92	115,38			
fevral	101,92	119,22			
mart	105,76	119,22	309,60 (101,92+101,92+105,76)	353,82 (115,38+119,22+119,22)	114,28
aprel	105,76	124,99			
may	107,69	124,99			
iyun	107,69	126,92	321,14 (105,76+107,69+107,69)	376,90 (124,99+124,99+129,92)	117,36
iyul	109,61	126,92			
avgust	109,61	128,85			
sentabr	111,53	130,77	330,75 (109,61+109,61+111,53)	384,62 (126,92+128,85+128,85)	116,29
oktabr	111,53	130,77			
noyabr	115,38	130,77			
dekabr	115,38	134,61	342,29 (111,53+115,38+115,38)	396,15 (130,77+130,77+134,61)	115,74

- Jadval B va V ustuni ma'lumoti 3 - shartli misolda (G va D ustunga qarang) hisoblangan.

Ishlab chiqaruvchilarning sanoat mahsulotlari narxlari indeksini hisoblash va e‘lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ullar
I bosqich	Sanoat korxonalari katalogi va vaznlar tuzilmasini shakllantirish	1. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxati va sanoat sohasidagi iqtisodiy faoliyati turlari kesimidagi ishlab chiqarish hajmlari bo‘yicha shakllantirilgan ma’lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish; 2. Sanoat statistikasi ma’lumotlari asosida korxonalar va mahsulotlar bo‘yicha vazn ulushlari tuzilmasini shakllantirish.	yilda bir marotaba, oktabr oyining 20- kuni yilda bir marotaba, noyabr oyining 25- kuniga qadar	Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi Narxlar statistikasi boshqarmasi, Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Elektron kuzatuvlarni qabul qilish	Har oyda e-Stat tizimi orqali 12 narx (1- bobi, sanoat) kuzatuv shakli asosida respondentlardan kuzatuv ma’lumotlarini qabul qilib olinishini ta’minlash.	12 narx, kuzatuv oyining 25- sanasi	Hududiy statistika boshqarmalari, Narxlar statistikasi boshqarmasi
III bosqich	Birlamchi ma’lumotlar bilan ishlash	Korxonalardan yig‘ib olingan ma’lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlash va yakuniy ma’lumotlarni shakllantirish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda	Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari
IV bosqich	Yakuniy ma’lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish	1. Ko‘rsatkich bo‘yicha statistik byulleten shakllantirish; 2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e‘lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish; 3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indeksi bo‘yicha yakuniy ma’lumotlarni yetkazish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, Reja-jadvalga asosan	Narxlar statistikasi boshqarmasi